

O`ZBEKISTONDA YER-SUV ISLOHOTI DAVRINING SOVET TARIXSHUNOSLIGIDA O`RGANILISHI

Yo`ldasheva Qizlarxon Bahodir qizi

Namangan Davlat Universiteti

Tarix yo`nalishi 2-kurs magistranti.

E-mail: g.Yo`ldasheva@qizlarxon.uz

Anotatsiya. Ushbu maqolada O`zbekiston tarixining eng ziddiyatli davrlaridan biri XX asrning 20-yillaridagi eng muhim siyosiy-iqtisodiy tadbir, Sovet davlatining O`zbekistonda amalga oshirgan yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi (1925-1929 yillar) tarixshunosligi masalalari tahlil qilingan, maqola mazkur muammo tarixshunosligining sovet davrida o`rganilishi va yoritilishi borasida muallif qarashlarini ifodalaydi.

Kalit so`zlar. Yer-suv islohoti, O`zbekiston SSR, Kommunistik partiya, O`rta Osiyo 1925-1929-yillar, Sovet hukumati, kollektivlashtirish, mulkchilik, agrar siyosati, ilmiy-nazariy qarashlar

Bugungi kunda yangilanayotgan O`zbekiston oldida, shiddat bilan o`zgarayotgan davrning zamonga mos ravishda, tarix fanini oldida ham, har tomonlama mustaqil fikrga ega, yuksak bilimli va vatanparvar avlodni ulg`aytirishni dolzarb masala sifatida qo`ymoqda. Binobarin, o`z tarixini, milliy o`zligini qadim an`ana va urf-odatlarini bilmagan, uni anglay olmagan xalq tezda o`zining ozodligini hamda yuz yillar davomida ota-bobolarining mashaqqatli mehnati, chekkan zahmatlari va to`kkan qonlari evaziga qurilgan milliy davlatchiligini va mustaqilligini yo`qotadi. Xalqimiz necha yuz yillar davomida turli tala-to`plarnva bosqinlar sharoit ham o`zligini saqlab qoldi. Binobarin, "O`zbek xalqining tarixida qanday murakkab davrlar, og`ir sinovlar bo`lganini barchamiz yaxshi bilamiz.[1]

Shubhasiz, bugungi globallashuv jarayonida turli xil yot madaniy, g`oyaviy hurujlarga qarshi kurashda tariximizni chuqur, har tomonlama puxta va holis o`rganish hal qiluvchi ro`l o`ynaydi.[2]

Biroq bugungi kungacha ham tariximizning butun boshli davrlariga ham nisbatan to`gri va holis qarashlar afsuski shakllanmadi, tariximizda sezilarli iz qoldirgan masalalar yetarlicha o`rganilmayotir. Zero, davlatimizning mustaqillikni qo`lga kiritganligiga 30 yil vaqt o`tgan bo`lsada, hamon sovet davrida shakllangan tarixga bir tomonlama qarash ba`zi masalalarda davom etmoqda. O`zbekistonning eng muhim va ziddiyatli tarixiy davrlardan biri bu XX asrning 20 yillari tarixi eng



dolzarb va ziddiyatli tarixiy davrlaridan biridir. Bu davrda sovet hukumati tomonidan O`rta Osiyoda bir qator siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tadbirlar o`tkazildi. Bulardan, eng muhimi, avvalo, o`lkadagi millatlar sun`iy ravishda bir-biridan hududiy chegaralanish orqali ajratildi hamda O`zbekiston SSR, Qozog`iston SSR, Turkmaniston SSR, Qirg`iziston SSR, Tojikiston SSR va Qoraqalpog`iston AO lari tashkil etildi. Keyingi bosqichda o`lkadagi mana shu yangi sovet respublikalarida, sovet hukumatining ijtimoiy tayanchini yaratish uchun yer-suv islohoti davom ettirildi.

O`zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon sovet davlatining XX asrning 20 yillari tarixi, uning O`rta Osiyo va Qozog`istondagi yer-suv islohoti va jamoalashtirish siyosati bo`yicha bir qator ilmiy ishlar va asarlar e`lon qilinadi.[3] bu tadqiqot ishlarida yer-suv islohotining iqtisodiy oqibatlari statistik ma`lumotlar, raqamlar asosida berilib, atroflicha tadqiq qilishdi.[4] Sovet hukumatining agrar siyosati O`zbekiston qishloqlarida yuz yillardan beri shakllanib kelgan yerga egalik qilish strukturasi butunlay buzib, mulkchilikning mutlaqo yangi va jahon tarixida misli ko`rilmagan shaklini tadbiriq qildi. Yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi (1925-1929 yillar) tarixshunosligiga doir ilmiy tadqiqotlar va asarlar ilmiy-nazariy jihatdan ikki (sovet davri va mustaqillik davri) davrga bo`linadi.[5]

Bular sovet davrida (1925-1991-yillari) yaratilgan kitoblar va ilmiy tadqiqotlar, ikkinchi davri Mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy ishlar va tadqiqotlar. Sovet davrida yaratilgan ilmiy ishlarning o`zini uch bosqichga va ikki bosqichda tadqiq etish bo`yicha qarashlar mavjud.[6] XX asrning 20-yillarining 2-yarmida Sovet davlatining O`zbekiston SSRda olib borgan yer-suv islohoti va boshqa ijtimoiy siyosiy tadbirlari haqida siyosati haqida bir qator ilmiy adabiyotlar yaratilgan. Bu asarlarda yer-suv islohoti haqida bir qator ilmiy adabiyotlar yaratilgan. Bu asarlarda yer-suv islohoti haqida statistik ma`lumotlar va raqamlar yetarli asosida e`lon qilingan.

Umuman olganda, XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillarida yaratilgan asarlarda O`zbekiston SSRda, xususan, O`rta Osiyoda amalga oshirilgan yer-suv islohoti sotsializmning kapitalizm ustidan g`alabasi va jahon proletarning Kommunistik sari muhim qadami sifatida baholanadi. Vaholanki, aynan 30-yillarida SSSRda totalitar rejim qaror topib tobora kuchayib borayotgan edi. O`sha davrda sovet davlatida tarix fanining muayyan voqelikka asoslanishi barham topdirildi. Tarixiy tadqiqotlarda sinfiy yondashuv kuchayib, lenincha dunyoqarashga asoslangan metodologiyaga amal qilindi. XX asrning 30-yillarida sovet davlatida markisistik mafkura hukmronligi uzil-kesil qaror topdirildi. Aynan ushbu omillar



tufayli bu davrdagi asarlar va tadqiqotlarda tadqiqotchining holisligi va o`sha davrdagi voqelikni to`g`ri holda yoritganligi bir muncha shubhaga qo`yilishi kerak.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi ilmiy adabiyotlarda sovet hokimiyatining paydo bo`lishi, sovetlarning O`rta Osiyoda agrar siyosatining ijtimoiy xarakteri va oqibatlari nisbatan kengroq ochib berishga harakat qilingan. 60-70 yillarda qilingan tadqiqotlarda sovet davlatining yer-suv islohoti, qishloqdagi o`zgarishlar, xususan, qishloqda mulkchilikning bekor qilinishi strukturasi rivojlantirish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy masalalari tadqiq qilindi. 60-70-yillardagi muammo tarixshunosligi G`Rizayev, L.Z.Kunakova, I.Alimov va boshqalar tomonidan tahlil qilindi. Farg`ona vodiysi qishloqlarning 1920-yillarining 2-yarmidagi iqtisodiy hayotning ayrim jihatlari bilan mustaqillikdan so`ng R.R.Shamsuddinov tomonidan ancha batafsil o`rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev.Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutqi T-:"O`ZBEKISTON", 2019. 5-bet
2. Shamsutdinov R. O`zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari.T.2008
3. Ahmedov D.R. Sovet hokimiyatining Farg`ona vodiysi qish-loq xo`jaligida mulkdorlar qatlamini cheklash siyosati (1917-1929 yill)
4. O`sha joyda.
5. Xaydarov M.M. O`zbekistonda Sovet davlati boshqaruvi tizimining shakllanishi, bosqichlari va mohiyati (1917-1941-yill) O`zbekiston tarixi Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi avtorefarati. Toshkent - 2021. 8-bet.
6. Shamsutdinov R. O`zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari.T.2008

